



THE EVOLUTION OF THE IDEAS OF RELIGIOUS TOLERANCE AND FREEDOM OF CONSCIENCE IN THE HISTORY OF SOCIO-PHILOSOPHICAL THOUGHT OF THE ANCIENT EAST

Dilfuza Sharifovna Egamova

*Independent researcher at Andijan State Pedagogical University
Andijan, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Ancient East, socio-philosophical thought, religious tolerance, freedom of conscience, Hinduism, Buddhism, Confucianism, spiritual heritage, religious harmony, moral values, stability of society.

Received: 16.09.25

Accepted: 17.09.25

Published: 18.09.25

Abstract: The article analyzes the process of formation of the ideas of religious tolerance and freedom of conscience in the history of socio-philosophical thought of the ancient East and their gradual development. Religious views formed in ancient civilizations such as Egypt, Mesopotamia, India, and China, and based on them, ideas aimed at ensuring harmony and stability in the life of society are illuminated on a scientific basis. In Hinduism, Buddhism, and Confucianism, the principles of spiritual freedom, the right to choose one's faith, and tolerance are analyzed. Also, the views of ancient Eastern thinkers on religious freedom and moral values are explained by their role in strengthening social solidarity. The article shows that these ideas created a theoretical basis for the philosophical views of the next period and their influence on the formation of modern concepts of religious tolerance. Thus, in ancient Eastern thought, the ideas of religious harmony are analyzed as an important layer of the spiritual heritage of humanity.

QADIMGI SHARQ IJTIMOIIY-FALSAFIY TAFAKKUR TARIXIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA VIJDON ERKINLIGI G'OYALARINING EVOLYUTSIYASI

Dilfuza Sharifovna Egamova

*Andijon davlat pedagogika
universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Andijon, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Qadimgi Sharq, ijtimoiy-falsafiy tafakkur, diniy bag'rikenglik, vijdon erkinligi, Hinduizm, Buddizm, Konfutsiychilik, ma'naviy meros, diniy totuvlik, axloqiy qadriyatlar, jamiyat barqarorligi.

Annotatsiya: Maqolada qadimgi Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligi g'oyalarining shakllanish jarayoni va ularning bosqichma-bosqich rivojlanishi tahlil etiladi. Misr, Mesopotamiya, Hind va Xitoy kabi qadimiy sivilizatsiyalarda shakllangan diniy qarashlar, ular asosida jamiyat hayotida totuvlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan g'oyalar ilmiy asosda yoritiladi. Hinduizm, buddizm va konfutsiychilikda insonning ruhiy-ma'naviy erkinligi, e'tiqod tanlash huquqi hamda bag'rikenglik tamoyillari tahlil qilinadi. Shuningdek, qadimgi Sharq mutafakkirlarining diniy erkinlik va axloqiy qadriyatlar haqidagi qarashlari ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashdagi o'рни bilan izohlanadi. Maqolada ushbu g'oyalarning keyingi davr falsafiy qarashlari uchun nazariy asos yaratgani hamda zamonaviy diniy bag'rikenglik konsepsiyalarining shakllanishiga ta'siri ko'rsatib beriladi. Shu tariqa, qadimgi Sharq tafakkurida diniy totuvlik g'oyalari insoniyat ma'naviy merosining muhim qatlami sifatida tahlil qilinadi.

ЭВОЛЮЦИЯ ИДЕЙ РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ И СВОБОДЫ СОВЕСТИ В ИСТОРИИ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЙ МЫСЛИ ДРЕВНЕГО ВОСТОКА

Дилфуза Шарифовна Эгамова

Независимый исследователь

Андижанского государственного педагогического университета

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Древний Восток, социально-философская мысль, религиозная терпимость, свобода совести, индуизм, буддизм, конфуцианство, духовное наследие, религиозная гармония, нравственные ценности, стабильность общества.

Аннотация: В статье анализируется процесс формирования идей религиозной толерантности и свободы совести в истории социально-философской мысли древнего Востока и их поэтапное развитие. На научной основе освещаются религиозные взгляды, сформировавшиеся в древних цивилизациях, таких как Египет, Месопотамия, Индия и Китай, идеи, направленные на обеспечение гармонии и стабильности в жизни общества. В индуизме, буддизме и конфуцианстве анализируются принципы духовно-нравственной свободы человека, права выбора вероисповедания и толерантности. Кроме того, взгляды древневосточных мыслителей на религиозную свободу и

нравственные ценности объясняются их ролью в укреплении социальной солидарности. В статье показано, что эти идеи создали теоретическую основу для философских взглядов последующих периодов и их влияние на формирование современных концепций религиозной терпимости. Таким образом, в древневосточном мышлении идеи религиозного согласия анализируются как важный пласт духовного наследия человечества.

Kirish. Diniy bag‘rikenglik va vijdon erkinligi tushunchalari insoniyat tafakkurida ming yillar davomida shakllanib, turli tarixiy, falsafiy va madaniy bosqichlardan o‘tgan. Bu g‘oyalar dastlab diniy qarashlar doirasida vujudga kelgan bo‘lsa-da, keyinchalik ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji bilan falsafiy va huquqiy tizimlarning markaziy muammosiga aylangan. Diniy bag‘rikenglik va vijdon erkinligi g‘oyalari zamonaviy demokratik jamiyatlarda erkinlik va huquqiy normalarning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Biroq bu g‘oyalarning ildizlari qadimiy tsivilizatsiyalargacha borib taqaladi. Tadqiqotchi L.Milentyevich fikricha, “qadimgi Misr va Mesopotomiya tsivilizatsiyalarida bu masalalar diniy amaliyotlar, ijtimoiy tizim va davlat boshqaruvi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Har ikki sivilizatsiya diniy hayotga katta e‘tibor bergan bo‘lsada, ularning bag‘rikenglik va vijdon erkinligiga munosabati turlicha bo‘lgan”[1]. Bundan ko‘rinib turibdiki, qadimgi Misrda diniy marosimlar markaziy o‘rinda bo‘lsa, Mesopotomiyada turli xudolarga sig‘inish bag‘rikenglik unsurlarini kuchaytirib, vijdon erkinligi masalasiga nisbatan kengroq yondashuv shakllangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qadimgi Sharq tafakkurida diniy bag‘rikenglik va vijdon erkinligi g‘oyalari bo‘yicha adabiyotlar tahlili asosan T.Milentyevich, I.Shavarinskiy, M.Dandamayev, M.Voronika kabi tadqiqotchi olimlarning Misr, Mesopotamiya, Hind va Xitoy sivilizatsiyalari diniy-falsafiy merosiga tayangan. Tadqiqotlarda Zardushtiylik, hinduizm, buddizm va konfutsiychilikning ma‘naviy-axloqiy tamoyillari ijtimoiy barqarorlik hamda totuvlik manbai sifatida talqin etiladi.

Tahlil va natijalar. Qadimgi Misr diniy jihatdan ancha murakkab tizimga ega bo‘lgan politeistik (ko‘p xudoli) jamiyat edi. Misr madaniyati Osiris, Isida, Amon-Ra, Xorus kabi ko‘plab xudolarga sig‘inishni o‘z ichiga olgan. Shu jihatdan qaraganda, Misr jamiyatida turli xudolar va ularning ibodat shakllari mavjudligi diniy bag‘rikenglik uchun ma‘lum darajada zamin yaratgan. Biroq bu bag‘rikenglik mutlaq erkinlik emas, balki davlat rasmiy diniy doktrinasiga zid kelmagan shartlar doirasidagina mavjud edi. Fir‘avnlr turli hududlardagi mahalliy xudolarni e‘tirof etgan va ularni markaziy panteonga qo‘shgan. Bu esa boshqa diniy qarashlarni butunlay yo‘q qilish

emas, balki sintez orqali nazorat qilish strategiyasini ko'rsatadi. Ayniqsa, Yangi podsholik davrida Amon-Ra kultining ustuvorligi boshqa xudolarning ahamiyatini kamaytirdi.

E'tiborga loyiq voqea bu – fir'avn Exnaton (Yangi podsholik hukmdori mil. av. 1364-1347) davridagi diniy islohotlar bo'lib, u yagona xudo – Atonni targ'ib qilib, politeistik diniy tizimni rad etdi. Bu islohotlar mavjud diniy tizimga zid bo'lgani sababli, Akhenaten vafotidan so'ng avvalgi tartib qayta tiklandi. Bu holat Misrda vijdon erkinligi cheklanganini, diniy mafkura hukmron elita tomonidan qat'iy nazorat qilinganini ko'rsatadi.

Mesopotomiya – Dajla va Frot oralig'idagi hudud bo'lib, unda Shumerlar, Akkadlar, Bobilliklar va Ossuriyaliklar kabi bir nechta sivilizatsiyalar o'z faoliyatini olib borgan. Bu jamiyatlarda ham diniy tizim politeistik xarakterga ega bo'lgan. Enlil, Anu, Inanna (Ishtar), Marduk kabi ko'plab xudolar mavjud bo'lib, ular har bir shahar-davlatning homiylari sifatida ko'rilgan. "Shumerlar diniy tashkilotlarga va ibodatxonalarga katta ahamiyat berishgan. Diniy e'tiqodlar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib borgan bo'lsa-da, Mesopotamiya jamiyatlarida diniy bag'rikenglikning ayrim shakllari mavjud bo'lgan"[2]. Masalan, turli shahar-davlatlarda har xil xudolarga sig'inishga ruxsat berilgan. Biroq, bu ham diniy pluralizm emas, balki markazlashtirilmagan boshqaruv shaklining natijasi edi.

Mesopotamiyada bag'rikenglik g'oyasiga yaqinroq misollardan biri – Kirus II (Ahamoniylar sulolasi asoschisi) faoliyatida ko'zga tashlanadi. Miloddan avvalgi VI asrda u Bobilni egallaganida, yahudiylarga o'z dinlariga rioya qilish va Quddusga qaytish erkinligini bergan. Bu qadimgi dunyoda diniy bag'rikenglikning ilk siyosiy ifodasi sifatida tarixda muhim o'rin tutadi. Kirus silindri deb ataladigan hujjatda bu erkinlik aniq ifodalangan bo'lib, ba'zi tarixchilar bu hujjatni "inson huquqlari deklaratsiyasi"ning prototipi deb baholaydilar. Ahamoniylar davlati (mil. avv. VI–IV asrlar) podshosi Kir II tomonidan e'lon qilingan "Kirus silindri – inson huquqlarining ilk dalillaridan biri sifatida e'tirof etiladi"[3]. Ushbu hujjatda xalqlarga o'z e'tiqodini erkin ravishda amalga oshirish huquqi tan olingan. Bu esa diniy bag'rikenglikning tarixiy ildizlariga misoldir. Diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligi insoniyat madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan bo'lib, ularning shakllanishi uzoq tarixiy taraqqiyot jarayoniga ega. Bu tushunchalar ijtimoiy ongning diniy, falsafiy va huquqiy shakllari o'zaro uyg'unlashgan murakkab ijtimoiy hodisalardir. Ularning zamirida inson sha'ni, e'tiqod huquqi, e'tiqod erkinligi va diniy xilma-xillikka hurmat tamoyillari yotadi.

Qadimgi Misr va Mesopotomiyada vijdon erkinligi, ya'ni shaxsning o'z diniy e'tiqodi va qarashlarini erkin tanlash huquqi zamonaviy ma'nodagi shaklda mavjud bo'lmagan. Chunki diniy e'tiqodlar ko'p hollarda davlat hokimiyatining asosi sifatida qaralgan. Fir'avnlr Misrda xudo sifatida e'tirof etilgan bo'lsa, Mesopotamiya hukmdorlari ham xudolarning erdagi vakillari sifatida o'z hokimiyatlarini asoslaganlar. Shuningdek, diniy ibodatlar, marosimlar va axloqiy qoidalar

jamoaviy xarakterga ega bo'lib, individ sifatida shaxsning o'z e'tiqodini tanlashi yoki unga qarshi chiqishi amalda yo'l qo'yilmagan. E'tiqodlar milliy birlikni ta'minlovchi vosita sifatida qaralgan, diniy chekinish esa isyon yoki davlatga xiyonat deb baholangan.

Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, qadimgi jamiyatlarda diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligi tushunchalari hali shakllanmagan, ammo ularning urug'lari ba'zi siyosiy harakatlar, diniy sintezlar va hududiy farqlarda namoyon bo'lgan. Bu jarayonlar insoniyat tafakkurining rivojlanishida bosqichma-bosqich shakllangan va antik davrda yunon falsafasi, Rim huquqi, keyinchalik esa monoteistik dinlar – xristianlik, islom va yahudiylik orqali chuqurlashgan. Ayniqsa, Kirus II faoliyati va diniy erkinlik siyosati bu g'oyaning ilk siyosiy ifodasi sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, qadimgi Misr va Mesopotomiya tajribasi diniy bag'rikenglik g'oyasining tarixiy-evolyutsion shakllanishida dastlabki asos bo'lib xizmat qilgan.

Qadimgi Misr va Mesopotomiya tsivilizatsiyalarida diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligi to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, diniy xilma-xillik, mahalliy xudolarning mavjudligi va ayrim hukmdorlarning siyosiy qarorlari bu g'oyalarning ilk shakllarini namoyon etgan. Vijdon erkinligi zamonaviy demokratik g'oya sifatida u davrda mavjud bo'lmagan, ammo jamoaviy diniy hayotda ayrim bag'rikenglik tamoyillari va boshqa e'tiqodlarga nisbatan munosabati mavjud bo'lgan. Bu esa insoniyat tafakkurida diniy erkinlik g'oyasining tarixiy ildizlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Qadimgi Sharqda xususan Hind falsafasida aynan mana shu masala o'zining ifodasini topgan. Ayniqsa buddizm va jaynizm, barcha mavjudotlarga nisbatan zo'ravonlik qilmaslik (ahimsa) tamoyili asosida diniy bag'rikenglik g'oyasi shakllandi. Bu oqimlarda o'zgalarning e'tiqodiga hurmat bilan yondashish, fikr erkinligi va bahs yuritish madaniyati rivoj topgan. "Ahimsa – bu sanskritcha so'z bo'lib, zo'ravonlik qilmaslik, zarar yetkazmaslik"[4] degan ma'noni bildiradi. Bu g'oya Hindiston sivilizatsiyasining diniy-falsafiy an'alarida, xususan, hinduizm, buddizm va jaynizm asosiy axloqiy tamoyil sifatida shakllangan. Ahimsa nafaqat jismoniy zo'ravonlikdan tiyilish, balki so'z va fikr orqali zarar yetkazmaslikni ham o'z ichiga oladi. Uning zahirida barcha mavjudotlarga nisbatan rahm-shafqat, bag'rikenglik, sabr-toqat va ruhiy poklik yotadi.

Ahimsa tushunchasi, avvalo, jaynizm alohida chuqur rivojlangan. Jaynizm ta'limotiga ko'ra, har bir mavjudot – hatto eng kichik tirik mavjudot ham – jon va onga ega bo'lib, unga zarar yetkazish axloqiy jihatdan qattiq qoralanadi. Jaynizm vakillari hatto o'simlik va hasharotlarga ham ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladilar. Ular hayot davomida boshqalarga zarar yetkazmaslikni eng oliy maqsad deb biladilar. Bu jihat jaynizm vakillarining hayot tarzida, kundalik urf-odatlarida, hatto ovqatlanish tartibida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Hinduizmda esa ahimsa “dharma”[5] – ya’ni axloqiy-ruhiy tartibning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu g’oya “Mahabharata” asarida, xususan “Bhagavad Gita”da chuqur talqin etilgan. Unda aytilishicha, haqiqiy donishmandlik – nafaqat o’zini, balki atrofdagilarni ham zarardan asrash, har qanday nafrat, g’azab, jahl kabi tuyg’ulardan xalos bo’lishdir. Ahimsa orqali inson o’z nafsini jilovlab, ruhiy kamolot sari intiladi. Diniy bag’rikenglik aynan mana shu ichki tinchlik va boshqalarning tanlovi, e’tiqodiga hurmat asosida shakllanadi.

Buddizmda ham ahimsa g’oyasi asosiy axloqiy me’yorlardan biri bo’lib, u “pancha sila”[6] – ya’ni tinch-totuv yashashning besh asosiy axloqiy qoidaning birinchisidir. Buddizmda hayotning muqaddasligi, har bir mavjudotga rahm-shafqat bilan qarash zarurligi uqtiriladi. Shuning uchun buddistlar urush, qatl, jazolash yoki kamsitish kabi zo’ravonlik shakllarini qat’iy rad etadilar. Ularning fikricha, ahimsa orqali inson karmik muvozanatni saqlab, ruhiy najot sari qadam tashlaydi.

Ahimsa g’oyasi – diniy bag’rikenglikning falsafiy asosi bo’lib xizmat qiladi. U har kimning o’z e’tiqodiga, dunyoqarashiga ega bo’lish huquqini tan oladi. Insonni inson sifatida hurmat qilish, uning vijdonini, e’tiqodini to’liq erkin qoldirish — ahimsa ruhining amaliy ifodasidir. Diniy pluralizm, konfessiyalararo muloqot, murosa va tinchlik ahimsa tamoyillarining zamonaviy shakllari sifatida qaraladi. Ahimsa nafaqat individual axloqiy me’yor, balki jamiyatdagi diniy bag’rikenglikni ta’minlaydigan universal axloqiy tamoyildir. U o’zaro hurmat, sabr, murosaga asoslangan ijtimoiy munosabatlar uchun zamin yaratadi.

Qadimgi Xitoy falsafasi Sharq tafakkurining eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Unda inson, jamiyat, tabiat va koinot o’rtasidagi uyg’unlik, axloqiy barkamollik, ijtimoiy tartib va ruhiy kamolotga alohida e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, Konfutsiy (miloddan avvalgi 551–479-yillar) va Lao Szi (miloddan avvalgi VI–V asrlar) ta’limotlari diniy bag’rikenglik va vijdon erkinligi kabi tushunchalarning shakllanishida asosiy falsafiy poydevor bo’lib xizmat qilgan. Har ikkala mutafakkir jamiyatda ruhiy-axloqiy uyg’unlikni saqlashga intilgan bo’lsa-da, ularning yondashuvi va qadriyatlari bir-biridan farq qiladi. Konfutsiy ta’limotida asosiy e’tibor “jen” (仁) – insonparvarlik, mehr-shafqat va axloqiy yuksaklik g’oyasiga qaratilgan” [7]. Uning fikricha, har bir inson jamiyatda o’z o’rnini topishi va ijtimoiy barqarorlikka hissa qo’shishi uchun avvalo o’zini axloqiy jihatdan takomillashtirishi lozim. Bu yondashuvdan kelib chiqib, Konfutsiy dinlararo bag’rikenglik va vijdon erkinligini bevosita emas, balki bilvosita – ijtimoiy tartib va axloqiy intizom asosida asoslab beradi.

Konfutsiy dinlararo nizolarni qoralagan, uningcha har bir inson ota-onaga hurmat, ustozga itoat, qonunga bo’ysunish asosida yashasa, jamiyatda nizolar bo’lmaydi. U diniy qarashlardan ko’ra axloqiy normalarni ustun qo’ygan. Bu esa vijdon erkinligining asl mohiyatini – har bir kishining ichki e’tiqodi va ongli tanlovini qadrlashga xizmat qiladi. Konfutsiy o’z asarlarida:

“O‘zing xohlamagan narsani boshqalarga ravo ko‘rma” deya insonlararo munosabatlarda o‘zaro hurmat va murosaga da‘vat etgan. Bu fikr orqali u har bir insonning tanlash huquqiga, shu jumladan e‘tiqod erkinligiga ham e‘tibor qaratgan. Konfutsiychilik Xitoyda uzoq asrlar davomida davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, u qat‘iy diniy tizim bo‘lib shakllanmagan. Shu bois Konfutsiy ta‘limoti boshqa dinlar, xususan buddizm va daosizm bilan to‘qnashmay, aksincha ular bilan parallel va hamkorlikda rivojlangan. Bu esa Xitoyda diniy bag‘rikenglik muhitini yaratishga yordam bergan muhim omillardan biri sanaladi.

Lao Szi tomonidan asos solingan daosizm falsafasi esa tabiat va koinot qonunlari bilan uyg‘un yashash g‘oyasiga tayanadi. Uning asosiy tushunchasi – “Dao (道), ya‘ni yo‘l, tabiat qonuni, hamma narsaning asl manbai va mohiyatidir” [8]. Daosizmga ko‘ra, inson tabiatga qarshi emas, balki uning oqimi bo‘ylab yashashi kerak. Bunday qarashlar insonning ruhiy erkinligi, e‘tiqod erkinligi va mustaqil ongiga keng imkoniyatlar yaratadi. Daosizm diniy tizim sifatida shakllansa-da, u boshqa e‘tiqodlarga nisbatan mutlaqo toqatsiz bo‘lmagan. Aksincha, har bir insonning “Do”ni topish yo‘lidagi tajribasiga hurmat bilan qaragan. Bu g‘oya insonning vijdon erkinligini, ya‘ni ichki haqiqatni anglash, o‘z fikri, e‘tiqodi va hayotiy yo‘lini tanlash imkonini tasdiqlaydi. Lao Szi “Dao De Jing” asarida: “Donishmand o‘zini ko‘z-ko‘z qilmaydi, shuning uchun u yuksak bo‘ladi”[9] degan. Bu fikr orqali u majburlov va zo‘ravonliksiz, tabiiy va mulohazali tarzda yashashga chaqiradi. Bu holat esa erkinlik, xususan ruhiy-axloqiy tanlov erkinligini nazarda tutadi. Daosizm insonning o‘ziga, tabiatga va jamiyatga nisbatan hurmatda bo‘lishini targ‘ib qiladi. U zo‘ravonlikni inkor etadi, bu esa boshqa dinlarga nisbatan tajovuzkorlikni istisno qiladi. Shu tarzda, daoizm asosida ham diniy bag‘rikenglik g‘oyasi mustahkamlanadi.

Konfutsiy va Lao Szi ta‘limotlarida diniy bag‘rikenglik va vijdon erkinligi tushunchalari bevosita emas, balki falsafiy-axloqiy asoslar orqali yoritilgan. Konfutsiy uchun bu tushunchalar ijtimoiy axloqiy tizimda uyg‘unlik va tartibni saqlashga xizmat qilsa, Lao Szi uchun ular insonning ruhiy o‘sishi va tabiat bilan uyg‘un yashashining bir ifodasidir. Har ikkala mutafakkir ham insonning ichki dunyosini, e‘tiqodini va tanlov huquqini qadrlagan, har qanday majburlovga qarshi turgan.

Qadimgi Xitoyda bu ta‘limotlar asosida vujudga kelgan madaniyat ko‘p e‘tiqodli jamiyatni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Ularning ta‘siri ostida Xitoyda buddizm, konfutsiychilik va daoizm birgalikda, ba‘zida esa o‘zaro uyg‘unlashgan shaklda yashab kelmoqda. Bu esa qadimgi Xitoy falsafasi doirasida diniy bag‘rikenglik va vijdon erkinligi qadriyatlarining naqadar chuqur ildiz otganligini ko‘rsatadi. Konfutsiy va Lao Szi ta‘limotlari nafaqat axloqiy va falsafiy tizim sifatida, balki jamiyatda murosaviy, erkin va tolerantlik muhitni yaratish vositasi

sifatida ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, ularning fikrlari hozirgi davrda ham jamiyatlararo totuvlik va dinlararo muloqotni mustahkamlashda asos bo'la oladi.

Politeistik e'tiqod, bir tomondan, diniy bag'rikenglikning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularni yagona haqiqatga da'vo qiluvchi diniy mafkuralardan uzoq tutgan. Shu bilan birga, diniy qarashlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni, urf-odatlar, marosimlar va madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, diniy pluralizmga nisbatan ochiq yondashuv yuzaga kelgan.

Xulosa va takliflar. Birinchidan, Qadimgi Sharq tafakkurida diniy bag'rikenglik g'oyalari ijtimoiy barqarorlik va davlat boshqaruvi uchun zarur tamoyil sifatida shakllangan. Misr va Mesopotomiyada diniy hayot markaziy o'rin tutgan bo'lsa-da, turli xudolarga sig'inish jamiyatda e'tiqod xilma-xilligini saqlash imkonini bergan.

Ikkinchidan, Hind falsafasida hinduizm va buddizm g'oyalari insonning ruhiy erkinligi, axloqiy komillik va bag'rikenglikka intilishini targ'ib qilgan. Bu an'analar diniy qarashlar xilma-xilligini qabul qilish va vijdon erkinligi g'oyasini shakllantirishda muhim o'rin tutgan.

Uchinchidan, Xitoy tafakkurida konfutsiychilik va daosizm g'oyalari jamiyatdagi totuvlik, hamjihatlik va axloqiy mukammallikni bosh tamoyil sifatida ilgari surgan. Bu yondashuv diniy bag'rikenglikni siyosiy va ijtimoiy barqarorlik vositasi sifatida mustahkamlagan.

To'rtinchidan, Zardushtiylik ta'limoti ezgulik va yovuzlik kurashi orqali insonning ma'naviy tanlov erkinligini asoslagan. Bu esa diniy erkinlikni nafaqat e'tiqod masalasi, balki axloqiy qaror qabul qilish imkoniyati sifatida talqin etishga yo'l ochgan.

Beshinchidan, Qadimgi Sharqdagi diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligi g'oyalari keyingi davrlarda Sharq va G'arb falsafasiga kuchli ta'sir ko'rsatib, inson huquqlari, diniy erkinlik va demokratik qadriyatlarning shakllanishi uchun nazariy asos yaratgan.

Mavzuni o'rganish natijasida quyidagi amaliy takliflar ilgari surildi:

- Ta'lim jarayonida qo'llash – Qadimgi Sharq tafakkurida diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligi haqidagi g'oyalarni umumiy ta'lim va oliy o'quv dasturlariga kiritish orqali yosh avlodda tolerantlik va millatlararo totuvlikni shakllantirish.

- Dialog madaniyatini rivojlantirish – Hinduizm, buddizm va konfutsiychilikda mavjud bag'rikenglik tamoyillaridan foydalanib, dinlararo va madaniyatlararo muloqot dasturlarini kengaytirish.

- Huquqiy asoslarni mustahkamlash – Qadimiy tafakkurda ilgari surilgan erkinlik va totuvlik g'oyalarini zamonaviy huquqiy hujjatlar, inson huquqlari siyosatiga moslashtirish.

- Jamiyatda ma'naviy targ'ibot – Ommaviy axborot vositalari va madaniy tadbirlar orqali qadimiy diniy bag'rikenglik an'alarini targ'ib qilish, ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytirish.

- Tadqiqotlarni kengaytirish – Qadimgi Sharqdagi diniy bag‘rikenglik va vijdon erkinligi haqidagi manbalarni chuqur o‘rganib, ularni zamonaviy falsafiy va ijtimoiy muammolarni hal etishda qo‘llash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Милентиевич Л. Диалог с древностью: В.Розанов о древнеегипетской цивилизации // Вестник Санкт-Петербургского университета. Философия и конфликтология. 2023. Т. 39. Вып. 4. – С.750–761.
2. Шаваринский И.С. Религия Шумеров поиск объективного мировосприятия. // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. Философия, этика, религиоведение. 2017. №.1-1.
3. Дандамаев М. А. Политическая история Ахеменидской державы. – М.: «Наука», 1985 – С.42.
4. Воронкина М.А. Природа принципа ахимсы и межкультурный диалог. Автореферат филос.наук – М.: “Макс-Пресс”, 2004. – С.5.
5. Андросов В. П. Что такое «Дхарма» в буддизме? // Будда Шакьямуни и индийский буддизм. Современное истолкование древних текстов – М.: «Издательская Восточная литература» РАН, 2001. – С.35–41.
6. Осипов Ю.С. Панча сила: // Большая российская энциклопедия: 35. – М., 2004 – 2017.
7. Васильев В. А. Конфуций о добродетели // Социально-гуманитарные знания. 2006. № 6. – С.132-146.
8. Вонг Е. Даосизм. – М.: “Гранд”, 2001. – С.16..
9. https://msrabota.ru/content/book_docs/lao-tszi_dao_de_tszin1.pdf1_.pdf